

**INGLIZ TILIDAGI FILMLAR TAGLAVHALARIDA SINONIM
TANLASHNING TARJIMA SIFATIGA TA’SIRI****Zulayho Jumanova***O‘zDJTU, Tarjimonlik fakulteti**Tarjima nazariyasi va amaliyoti: turk tili**1-bosqich talabasi*zulayxojumanova70@gmail.com

+998999816207

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi filmlar taglavhalarida sinonim tanlashning tarjima sifatiga ta’siri va uning zamonaviy tarjimashunoslikdagi dolzarbligi o’rganildi. Taglavha tarjimasida sinonim tanlashning mazmuniy aniqlik, kontekstual moslik va kommunikativ samaradorlikka ta’siri ilmiy asosda yoritildi. Tadqiqotda psixolingvistik, qiyosiy-chog’ishtirma va so’rovnomalar metodlari qo’llanilib, turli sinonimik variantlar asosida tarjima qilingan taglavhalar tahlil qilindi. Natijalar kontekstga mos tanlangan sinonimlar tarjimaning tushunarligi va tabiiyligini oshirishini, noto’g’ri tanlov esa semantik buzilishlarga olib kelishini ko’rsatdi. Xulosa qilib aytganda, sinonim tanlash taglavha tarjimasining o’qiluvchanlik, tabiiylik va qabul qilinuvchanligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi aniqlandi.

Kalit So’zlar: taglavha tarjimasi, sinonim tanlash, tarjima sifati, kontekstual moslik, semantik aniqlik, tabiiylik (naturalness), qabul qilinuvchanlik (acceptability), audiovizual tarjima, leksik tanlov.

Abstract: This article examines the impact of synonym selection on translation quality in English film subtitles and its relevance in modern translation studies. The influence of synonym choice on semantic accuracy, contextual appropriateness, and communicative effectiveness in subtitle translation is analyzed on a scientific basis. The study employs psycholinguistic, comparative-contrastive, and survey methods, analyzing subtitles translated using different synonymous variants. The results show that contextually appropriate synonyms enhance the clarity and naturalness of translation, while incorrect choices lead to semantic distortions. In conclusion, synonym selection is identified as one of the key factors determining the readability, naturalness, and acceptability of subtitle translation.

Keywords: subtitle translation, synonym selection, translation quality, contextual appropriateness, semantic accuracy, naturalness, acceptability, audiovisual translation, lexical choice.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние выбора синонимов на качество перевода субтитров английских фильмов, а также его актуальность в современной теории перевода. Научно обосновано влияние выбора синонимов на семантическую точность, контекстуальную уместность и коммуникативную эффективность перевода субтитров. В исследовании применяются психолингвистические, сравнительно-сопоставительные и анкетные методы, а также проводится анализ субтитров, переведённых с использованием различных синонимических вариантов. Результаты показывают, что правильно подобранные синонимы, соответствующие контексту, повышают понятность и естественность перевода, тогда как неверный выбор приводит к семантическим искажениям. В заключение отмечается, что выбор синонимов является одним из ключевых факторов, определяющих читаемость, естественность и приемлемость перевода субтитров.

Ключевые слова: перевод субтитров, выбор синонимов, качество перевода, контекстуальная уместность, семантическая точность, естественность, приемлемость, аудиовизуальный перевод, лексический выбор.

Kirish. Zamonaviy tarjimashunoslikda audiovizual tarjima, xususan filmlarni taglavhalash, asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda til birliklarini, ayniqsa sinonimlarni to‘g‘ri tanlash masalasi tarjima sifatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Taglavhalash jarayonida leksik tanlov nafaqat mazmunni uzatish, balki uni qisqa, aniq va tomoshabin uchun tushunarli shaklda yetkazishni ham talab qiladi. Shu bois sinonimlarning kontekstga mos tanlanishi tarjimaning o‘qiluvchanligi, tabiiyligi hamda qabul qilinuvchanligi kabi asosiy sifat mezonlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Jorge Díaz-Cintas (2004; 2012) Taglavha tarjimasida matnning qisqartirilishi va moslashtirilishi jarayonida optimal leksik variantlarni tanlash zarurligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, noto‘g‘ri tanlangan sinonimlar semantik aniqlikning buzilishiga va matnning o‘qiluvchanligi pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, Agnieszka Szarkowska (2020) taglavha sifatini baholashda auditoriya omilini asosiy mezon sifatida ko‘rib, til birliklarining mos tanlanishi tomoshabin tomonidan matnning qabul qilinish darajasiga sezilarli ta‘sir qilishini qayd etadi. Zamonaviy tadqiqotlar (Gao va boshqalar, 2024) esa sinonimlarning kontekstual mosligi tarjimaning tabiiyligi va pragmatik aniqligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlarda taglavhalash jarayonida sinonim tanlashning aynan kontekstual mosligi va uning tarjima sifatiga bevosita ta‘siri yetarli darajada empirik asosda o‘rganilmagan. Bundan tashqari, bunday leksik tanlovlarni baholash uchun yagona va universal lingvistik mezonlar tizimi hali to‘liq shakllantirilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilidan o‘zbek tiliga taglavha tarjimasida sinonim tanlash jarayonining tarjima sifati, mazmuniy aniqlik va kontekstual moslikka ko‘rsatadigan ta‘sirini lingvistik hamda tarjimashunoslik yondashuvlari asosida kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida sinonimlarning funksional-lingvistik roli, ularning kontekstga mos tanlanish mexanizmlari hamda semantik aniqlikka ta‘siri tizimli ravishda o‘rganiladi. Shu bilan birga, sinonim tanlashning taglavha matni sifati, tushunarlik darajasi va kommunikativ samaradorlikka ko‘rsatadigan ta‘siri ham ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz tilidagi filmlar taglavhalarini korpus asosida o‘rganilib, undagi sinonim tanlash jarayoni va uning tarjima sifati hamda o‘zbek tomoshabinlarining tushunish darajasiga ta‘siri aniqlanadi. Tadqiqot natijalari taglavha tarjimasida sinonimlarni to‘g‘ri tanlash bo‘yicha aniq lingvistik mezonlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi, hamda tarjimonlar uchun mazmuniy aniqlik va kommunikativ samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Metodologiya.

1. Psixolingvistik metod.

Ushbu yondashuv ingliz tilidagi filmlar taglavhalarini tarjima qilish jarayonida sinonim tanlashning tomoshabin tomonidan qabul qilinishiga ta‘sirini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot davomida insonning tilni qabul qilish jarayoni, semantik idrok, kontekstni tushunish hamda kognitiv jarayonlar asosiy e‘tiborga olindi. Sinonimlarning turli variantlari asosida tarjima qilingan taglavhalar tahlil qilinib, ularning mazmunni anglash darajasiga ta‘siri kuzatildi. Natijada, kontekstga mos tanlangan sinonimlar tomoshabin tomonidan tezroq va aniqroq tushunilishi, noto‘g‘ri tanlangan sinonimlar esa semantik chalkashliklarga olib kelishi aniqlandi.

2. Qiyosiy-chog‘ishtrma metodi.

Mazkur tadqiqotda bir xil ingliz tilidagi film taglavhalarining turli sinonimik variantlar asosida o‘zbek tiliga tarjima qilingan shakllari o‘zaro qiyoslab o‘rganildi. Ushbu jarayonda tarjimalar o‘rtasidagi semantik va strukturaviy o‘xshash hamda farqli jihatlari, kontekstual moslik darajasi va mazmuniy aniqlik tahlil qilinib, sinonim tanlashdagi farqlarning tarjima sifati va kommunikativ samaradorlikka ta‘siri aniqlashtirildi. Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi film taglavhalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda sinonim tanlashning qanchalik muhim ekanini ochib berishga xizmat qildi.

3. So‘rovnoma metodi.

Tomoshabin nazarida yaxshi taglavha mezonlari



So'rovnoma natijalari tomoshabinlar uchun taglavha sifati qanday mezonlar asosida baholanishini yaqqol ko'rsatib beradi. Unga ko'ra, respondentlarning asosiy qismi — 52 foizi — taglavhaning oddiy va tushunarli bo'lishini eng muhim omil sifatida e'tirof etgan. Bu esa tomoshabin murakkab, ortiqcha bezakli yoki sun'iy tarjimadan ko'ra, tez anglashiladigan va ravon ifodani afzal ko'rishini ifodalaydi. Shuningdek, ishtirokchilarning 20 foizi taglavhaning asl matniga yaqin bo'lishiga urg'u bergan. Respondentlarning 12 foizi qisqa va lo'nda shaklni muhim deb hisoblaydi. Bu esa taglavhalar tez o'qiladigan, ortiqcha so'zlardan holi bo'lishi kerakligini bildiradi. Yana 16 foiz ishtirokchi esa barcha mezonlar muhim degan fikrni ilgari surgan. Bu yondashuv mukammal taglavha yaratishda muvozanat zarurligini anglatadi: soddalik, aniqlik va ixchamlik uyg'unlashgandagina yuqori sifatga erishish mumkin.

Xulosa. Natijalar nazariy asoslar bilan uyg'unlikda ko'rib chiqilganda, ingliz tilidan o'zbek tiliga taglavha tarjimasida sinonim tanlash tarjima sifatining muhim omillaridan biri ekanligi aniqlanadi. Xususan, o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra respondentlarning 52 %i taglavhaning oddiy va tushunarli bo'lishini hamda so'zma-so'z tarjima har doim ham mos kelavermasligini ta'kidlagan va bu holat ko'pincha noto'g'ri talqinga olib kelgani kuzatilgan. Ushbu natija Nida tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari ham noto'g'ri tanlangan sinonimlar matnning tushunarililigini pasaytirishi, hatto semantik buzilishlarga olib kelishini ko'rsatdi. Shu sababli, sinonim tanlash oddiy so'z almashtirish emas, balki uning mazmuniy aniqligi va umumiy sifatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Xulosa sifatida, Gao (2024) ta'kidlaganidek, "sinonimlarning kontekstual mosligi tarjimaning tabiiyligi va pragmatik aniqligini ta'minlaydi; kuzatishlarimizda ham mos tanlangan sinonimlar matnni tabiiy va oson tushunarli qiladi, mos kelmaydigan variantlar esa sun'iylik hissini uyg'otadi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. Routledge(pp.11-12).
2. Díaz-Cintas, J. (2004). *Audiovisual translation: Subtitling*. Routledge(pp.85-90).
3. Díaz-Cintas, J. (2012). *Subtitling: Theory, practice and research*. In C. Millán & F. Bartrina (Eds.), *The Routledge handbook of translation studies* (pp. 273–287). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203102893>
4. Gao, X., et al. (2024). *Subtitle translation quality and naturalness*. *Cogent Arts & Humanities*, 11(1), 5–10. <https://doi.org/10.1080/23311983.2024.2401250>Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating*. Brill(pp.159-160).
5. Szarkowska, A., & Díaz-Cintas, J. (2020). *Quality in subtitling*. *Journal of Audiovisual Translation*, 3(2), 1–15. <https://doi.org/10.47476/jat.v3i2.2020>